

**Kreditning to'liq qiymati
miqdori:**

_____ (_____) foiz
so'z bilan

**ISTE'MOL KREDITI BERISH TO'G'RISIDAGI
_____-SONLI SHARTNOMA**

202_-yil «__»-_____

Bundan buyon shartnoma matnida "BANK" deb yuritiluvchi "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki nomidan _____-yil "___"-_____dagi _____-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi _____ filiali boshlig'i _____ bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Kredit oluvchi" deb ataluvchi _____ (passport ma'lumotlari: seriyasi _____ raqami _____, _____ tomonidan _____-yil "___"-_____da berilgan) ikkinchi tomondan ushbu kredit shartnomasini (kelgusida "shartnoma" deb ataladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. Bank mazkur kredit shartnomasida kelishilgan miqdorda va shartlarda qarz oluvchi tomonidan sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun pul mablag'larini ajratish, qarz oluvchi olgan mablag'larini va unga hisoblangan foizlarni qaytarish majburiyatini oladi

II. KREDIT AJRATISH TARTIBI

2.1. Bank kredit oluvchiga _____ (_____) so'm kredit mablag'larini ajratadi.

2.2. Kredit _____ (_____) oy muddatga ajratiladi.

2.3. Kredit uchun foiz stavkasi yillik _____ (_____) qilib belgilaniladi.

2.4. Kreditning maqsadi: _____ sotib olish.

2.5. Berilgan kredit mablag'larini ajratish va olingan kreditni hamda unga hisoblangan foizlarni qaytarish muddatlari mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanmish *1-ilovaga* muvofiq amalga oshiriladi.

III. SHARTNOMA TUZISH HUQUQLARINI TASDIQLASH

3.1. "Mikrokreditbank" ATB _____ filiali mazkur kredit shartnomasini imzolash va kredit ajratish huquqiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

3.2. Kredit oluvchi o'zining muomala layoqatiga ega O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligini, ushbu kredit shartnoma oila a'zolari roziligi bilan amalga oshirilayotganligini, bankga taqdim qilgan hujjatlari haqiqiy ekanligini tasdiqlaydi va ularning to'g'riligini kafolatlaydi.

3.3. Kredit oluvchi mazkur kredit shartnomasi bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha

BANK _____

(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____

(imzo)

omillar, jumladan, unga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoiy ish qo'zg'atilmaganligini, iqtisodiy jarimalar qo'llanilmayotganligi, uning mulklariga uchinchi shaxslar tomonidan undiruv qaratilmayotganligi yoki boshqa shunga o'xshash holatlar mavjud emasligini tasdiqlaydi.

IV. KREDITORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mazkur kredit shartnomasi imzolangandan keyin Kredit oluvchi tomonidan 30 kun muddat ichida belgilangan kredit qaytarilishi ta'minotini bankga taqdim qilmasa, bank shartnomani o'z tashabbusi bilan bekor qilishi mumkin.

4.2. Kredit oluvchi tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarda qo'pol chalkashliklar, noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lsa, kredit ajratilgandan so'ng uni maqsadsiz sarflasa, yoki ssuda hisobvarag'i ochilgandan so'ng bir oy davomida kredit mablag'larni ishlatishga to'lov topshiriqnomasi taqdim qilinmasa bank kredit ajratmasligi, agar kredit ajratilgan bo'lsa uni muddatidan oldin qaytarib olishni talab qilishi mumkin.

4.3. Bank mazkur shartnoma bo'yicha qarz oluvchiga yuklatilgan barcha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini talab qilish huquqiga ega va ushbu majburiyatlar bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmasa bank kredit berishni to'xtatib qo'yishi yoki berilgan kreditni muddatidan oldin qaytarilishini talab qilishi mumkin. Jumladan,

- kreditdan foydalanish uchun bankga to'lanadigan foizlar belgilangan muddatdan 30 kundan ortiq kechiktirilganda;

- kredit mablag'laridan boshqa maqsadlar uchun foydalanilganida;

- kredit oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;

- kredit ta'minoti talabga javob bermaganda va kredit oluvchi tomonidan ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatda qo'shimcha ta'minot taqdim qilinmaganda;

- bank so'ragan ma'lumot va hujjatlar o'z vaqtida taqdim qilinmaganda, tekshirishlardan bo'yin tovlanganda, bank bilan sababsiz aloqani uzganda;

- kredit oluvchi tomonidan kreditni va unga hisoblangan foizlarni qaytarmaslik bo'yicha har qanday xavf yuzaga kelganda bank iste'molchiga yozma ravishda xabardor qilgan holda 10 kun muddat ichida kreditni va unga hisoblangan foizlarni qaytarib to'lashni talab qilishga haqli.

- "Bank", "Kredit oluvchi" (iste'molchiga) ga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi, grafik bo'yicha qarzdorligi, asosiy qarz va unga hisoblangan barcha foiz to'lovlari, shuningdek oshirilgan foizi va muddati o'tgan foizga hisoblangan penya qarzдорliklari o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, mazkur qarzдорliklar hamda to'lovlarni kredit oluvchi (iste'molchi)ning O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada ish haqi (pensiya) va boshqa maqsadlar bo'yicha ochilgan plastik karta(lar)sidan hamda omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag'laridan akseptsiz avtomatik ravishda yechib oladi.

Agarda akseptsiz undirib olish "Kredit oluvchi" (iste'molchi)ga tegishli bo'lgan xorijiy valyutada ochilgan bank plastik karta(lar)si va omonat hisobvaraqlariga nisbatan qo'llanilsa, bank kredit bo'yicha barcha qarzдорliklar va to'lovlar yuzasidan zarur mablag'larni yechib olinadigan sanada Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda yechib oladi.

4.4. Kredit oluvchi tomonidan kredit muddatida qaytarilmagan holda qaytarilmagan asosiy qarz summasi bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikka chiqarilgandan so'ng kredit shartnomasida ko'rsatilgan foiz to'lov darajasidan 1,5 baravar miqdorida amalga oshiriladi.

4.5. Kredit oluvchi tomonidan muddatida qaytarilmagan foiz to'lovlari uchun kunlik 0,05 foiz miqdorida penya hisoblanadi, lekin jami hisoblangan penya miqdori muddati o'tgan foiz qarzдорlikning 50 foizidan oshmasligi lozim.

4.6. Bank kredit mablag'lari va unga hisoblangan foizlar belgilangan muddatlarda qaytarilmaganda undiruvni kredit oluvchining yuqori likvidli mol-mulkiga hamda kredit ta'minotiga qaratish huquqiga ega.

4.7. Bank mazkur kredit shartnomasi kuchga kirgandan keyin bir bank ish kunida kredit oluvchiga alohida ssuda hisobvarag'ini ochadi.

4.8. Bank ssuda hisobvarag'idan mablag'larni o'tkazib berish to'g'risida mijoz belgilangan tartibda to'lov topshiriqnomasi taqdim qilganda bir bank ish kunida u ko'rsatgan sherigiga (kontragentiga) o'tkazib beradi.

4.9. Bank tomonidan kredit oluvchiga kredit shartnomasi qonuniy kuchga kirib, kredit oluvchi tomonidan to'lov topshiriqnomasi bankka taqdim etilgan kundan kechiktirib kredit ajratilgan holatda, bank mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan kredit summasidan 0,01% miqdorda, ammo kechiktirilgan kredit summasining 50% dan oshmagan miqdorda penya to'lab beradi.

4.10. Bank kredit oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan kredit oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma xabarnoma yuborishi shart.

4.11. Kredit oluvchi asosiy qarzni oldindan qaytarganda, asosiy qarzning qaytarilgan qismiga foizlar hisoblashni to'xtatadi.

4.12. Kredit oluvchiga tegishli tijorat siri va bank siri hisoblanuvchi ma'lumotlarning oshkor qilinmasligini ta'minlaydi.

4.13. Kredit oluvchining ssuda hisobvarag'idagi harakatlar to'g'risida uning so'roviga muvofiq ma'lumotlarni taqdim etadi.

4.14. Bank tomonidan mazkur kredit bo'yicha qarzдорliklarni so'ndirish uchun bank hisobvarag'i va (yoki) bank omonatidan (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'lar hisobvara (q) (omonat) egasining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvara (q) (omonat) egasiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) (shaxsan, pochta orqali, mobil telefonga SMS va boshqa kanallar orqali) yuboradi.

4.15. Bank kredit oluvchini quyidagi omillarni hisobga olgan holda o'z moliyaviy ahvolini tahlil qilishi zarurligi to'g'risida ogohlantirishi lozim:

- kredit oluvchining qarz yoki joriy moliyaviy ahvoliga mos kelishi;

- bank xizmatini ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishi uchun taxminan qaysi muddatlarda va qancha miqdorda pul mablag'lari kelib tushishi kutilayotganligi (masalan, jismoniy shaxslar uchun - ish haqi to'lanishi, boshqa daromadlar olishi davriyligi);

- kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan yengib bo'lmaz kuch ta'siridagi vaziyatlar va boshqa holatlar yuz berishi ehtimoli (shu jumladan jismoniy shaxslar uchun - ishini yo'qotish, o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ish haqi va boshqa turdagi daromadlarni kechikib olishi, ishga joylashishi, sog'lig'ining yomonlashganligi natijasida daromadlarining tushib ketishi).

4.16. Kredit oluvchi kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, bank tegishli kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini kredit oluvchiga yetkazish.

4.17. Talabnomada belgilangan muddatda o'ttiz kun ichida kredit oluvchi unda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, bank tegishli talab bilan sudga murojaat

qilish huquqiga ega.

4.18. Kredit shartnomasi bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, bank kredit oluvchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida kredit oluvchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, kredit oluvchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar beradi.

4.19. Bank qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda kredit shartnomasi bo'yicha kredit oluvchini muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, summalari, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilishi, kredit oluvchidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablarini so'raydi.

4.20. Kredit oluvchidan kreditning joriy to'lovi uchun kreditni (qarzni) qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini, biroq oy yakuniga qadar hisoblanadigan (foiz va penya) to'lovlari hisob-kitobini inobatga olgan holda undan ortiqcha qismi kredit oluvchi kreditining (qarzning) asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirishi mumkin.

4.21. Kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit oluvchi tomonidan kredit qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, kredit oluvchiga taqdim qilishi lozim.

Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

4.22. Bank kredit oluvchi tomonidan shartnomaga asosan kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur qarz bo'yicha:

- garovda turgan mulkni ta'qiqdan chiqarish;
- garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reestridan chiqarish choralari ko'radi.

V. KREDIT OLUVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Kredit oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

- iste'mol krediti berish qoidalarini bilan tanishib chiqish;
- o'z huquq va majburiyatlari to'g'risida, shu jumladan iste'mol krediti berish bilan bog'liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to'liq axborot olish;
- shartnoma shartlarining shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishini talab qilish;
- tegishli darajada sifatli bo'lmagan sotib olingan tovarning (ishning, xizmatning) almashtirilishini talab qilish yoki uni sifatida tegishli darajada bo'lgan boshqa shunga o'xshash tovarga (ishga, xizmatga) almashtirish imkoniyati bo'lmaganida shartnomani bekor qilish.

5.2. Kredit oluvchi:

- iste'mol krediti olish uchun zarur hujjatlarni taqdim etishi;
- bank yoki boshqa kredit tashkilotidan olingan moliyaviy iste'mol kreditidan shartnomaga muvofiq belgilangan maqsadda foydalanishi;
- tovar (ish, xizmat) haqini shartnomaga muvofiq o'z vaqtida to'lashi;
- olingan moliyaviy iste'mol kreditini qaytarishni va mazkur kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lashni shartnomada belgilangan tartibda hamda muddatlarda amalga

BANK _____

(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____

(imzo)

oshirishi shart.

5.3. Kreditdan foydalanishda kreditlashning maqsadlilik, qaytarishlilik, to'lovlilik, ta'minotlilik va muddatlilik tamoyillariga rioya qilishga majbur.

5.4. Kredit oluvchi mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanmish 1-ilovaga muvofiq kreditning foizlarini va kreditning asosiy summasini qaytarib boorish majburiyatiga ega.

5.5. Kredit oluvchi kreditning maqsadli ishlatilishi joyiga borib tekshirilganda, kredit mablag'lariga olingan iste'mol tovarlar(xizmatlar)ning saqlanish holatini bank xodimlari tomonidan tekshirilishiga ruxsat berish hamda sharoit yaratib berishi shart. Maqsadli tekshiruvlar muddati hamda vaqti bank tomonidan aniqlanadi va u kredit oluvchi bilan kelishilmaydi.

5.6. Bank Kredit oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlari buzilganligi tufayli shartnomani muddatidan oldin bekor qilish talabini qo'yganda, kredit oluvchi bank tomonidan ko'rsatilgan muddatda lekin, 10 kun muddatdan kechikmasdan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarini qaytarishi shart.

5.7. Bank tomonidan undiruv kredit oluvchining mulklariga qaratilganda kredit oluvchi ularni ixtiyoriy topshirish bo'yicha shartnomalar tuzish.

5.8. Kredit oluvchi qonun hujjatlariga hamda shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5.9. Kredit oluvchi o'ziga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi, grafik bo'yicha qarzdorligi, asosiy qarz va unga hisoblangan barcha foiz to'lovlari, shuningdek oshirilgan foizi va muddati o'tgan foizga hisoblangan penya qarzdorliklari o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, mazkur qarzdorliklar hamda to'lovlarning kredit oluvchining O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada ish haqi (pensiya) va boshqa maqsadlar bo'yicha ochilgan plastik karta(lar)sidan hamda omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag'laridan akseptsiz avtomatik ravishda bank tomonidan yechib olinishiga rozilik bildiradi va qarshilik qilmaydi.

Agarda akseptsiz undirib olish "Kredit oluvchi" ga tegishli bo'lgan xorijiy valyutada ochilgan bank plastik karta(lar)si va omonat hisobvaraqlariga nisbatan qo'llanilsa, kredit oluvchi kredit bo'yicha barcha qarzdorliklar va to'lovlar yuzasidan zarur mablag'larning yechib olinadigan sanada Markaziy bankning valyutani sotish kursi bo'yicha konvertatsiya qilingan holda akseptsiz tartibda bank tomonidan yechib olinishiga rozi bo'ladi va bunga qarshilik qilmaydi.

5.10. Kredit oluvchi tomonidan muddatida qaytarilmagan foiz to'lovlari uchun kunlik 0,05 foiz miqdorida penya hisoblanadi, lekin jami hisoblangan penya miqdori muddati o'tgan foiz qarzdorlikning 50 foizidan oshmasligi lozim.

VI. HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

6.1. Bank mazkur shartnomada kelishilgan miqdordagi mablag'larni mijozning ssuda hisobvarag'iga o'tkazib beradi va to'lovlarni mijozning to'lov topshiriqnomasi bilan mahsulot yetkazib beruvchi (ish, xizmat ko'rsatuvchi) ning hisobvarag'iga o'tkazib beradi.

6.2. Kredit oluvchi kredit va unga hisoblangan foizlarni mazkur shartnomaga ilova qilinayotgan 1-ilovadagi jadvalga muvofiq to'lab boradi.

6.3. Bank kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilmoqchi bo'lganda kredit oluvchiga 5 kun oldin xabar beradi. Shu muddat ichida kredit oluvchi bankka qarzni qaytarish to'g'risida ma'lum qilishi lozim.

6.4. Kredit oluvchining kechiktirilgan qarzlari (asosiy qarz va foizlar) 30 kundan oshib ketganda bank undiruvni mazkur kredit shartnomasining ajralmas qismi bo'lmish ta'minotlarga va iste'molchining yuqori likvidli mol-mulkiga qaratadi.

BANK _____

(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____

(imzo)

VII. ISTE'MOL KREDITI BO'YICHA TA'MINLASH.

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha berilgan kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

Kredit qaytmasligi xatari bo'yicha _____ so'mlik sug'urta polisi olinadi;

Bank va _____ o'rtasida 20____-yil "____"-_____da tuzilgan _____-sonli kafillik shartnomasi;

Boshqa ta'minot taqdim qilinganda

Kreditning qaytaruvchanligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni zarur darajada rasmiylashtirish bo'yicha har qanday xarajatlarni Kredit oluvchi o'z zimmasiga oladi.

7.2. Bank Kredit oluvchidan kredit qaytarilishining qo'shimcha ta'minotini talab etish huquqiga ega.

7.3. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning bir nechta usullari mavjudligi bir-biriga zid bo'lmaydi, majburiyatlarni bajarishning har qaysi usuli mustaqil hisoblanadi va bir-biriga bog'liq bo'lmaydi.

7.4. Zarurat bo'lganda, undirishni majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullariga qaratishda tanlash huquqi Bankda qoladi, u o'z xohishiga ko'ra talabni usullardan istalganiga qo'yishi yoki majburiyatlarni bajarishni ta'minlashning barcha usullariga qo'yishi mumkin.

7.5. Kredit oluvchi kreditni ta'minlashni kredit summasining kamida 125 foizi darajasida tutish majburiyatini oladi.

7.6. Kreditning ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar ushbu shartnomaning uzviy qismi hisoblanadi.

VIII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan belgilanadi.

8.2. Bank kreditning o'z vaqtida berilishi va hisob-kitoblarning to'g'ri amalga oshirilishi yuzasidan javobgardir.

8.3. Kredit oluvchi tomonidan kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanilganda, maqsadsiz foydalanilgan mablag' qiymatining 20 foizi miqdorida bankka jarima to'laydi.

8.4. To'langan penya va jarimalar tomonlarni majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

8.5. Ushbu shartnoma yoki uning ijrosi bilan bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar qonun doirasida tomonlarning o'zaro kelishuvi asosida hal qilinishi mumkin.

8.6. Nizo va kelishmovchiliklar taraflar o'zaro kelishuvi asosida hal qilinmagan taqdirda qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

IX. FORS-MAJOR.

9.1. Taraflarning erki va istagiga bog'liq bo'lmagan hamda oldindan ko'ra bilish yoki oldini olib bo'lmaydigan, favqulodda vaziyatlar oqibatidagi yengib bo'lmaz kuch tufayli taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasalar (fors-major), buning uchun ular javobgarlikdan ozod etiladilar.

Quyidagilar favqulodda vaziyatlar (fors-major) bo'lib hisoblanadi: suv toshqini, yong'in, zilzila, portlash, bo'ron, yer ko'chkisi, epidemiya va boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, fuqarolik tartibsizliklari, terrorchilik harakatlari.

BANK _____

(imzo)

KREDIT OLUVCHI _____

(imzo)

9.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganda majburiyatlar bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari davom etgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.3. Taraflar fors-major holatlari vujudga kelganligi va tugaganligi haqida zudlik bilan yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

9.4. Taraflar zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar mazkur holat favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar (fors-major) yuzaga kelishi oqibatida yuz berganligini hamda ular tomonidan lozim darajada bajarilishi uchun barcha mumkin bo'lgan va ularga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rganliklarini isbotlasalar Fors-major holati deb topilishi mumkin.

9.5 Taraflar fors-major haqida ikkinchi tarafni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi shart va yozma xabar kelib tushgan vaqtdan boshlab shartnomaning 9.4-bandida ko'rsatilgan holatlar o'z isbotini topishi lozim.

9.6. Fors-major holatiga asoslanayotgan taraf, vakolatli davlat idorasining bunday holatlarni vujudga kelganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

X. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

10.1. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

10.2. Taraflar ushbu Shartnoma majburiyatlarini bajarayotganda pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

10.3. Ushbu Shartnoma Taraflarning har biri boshqa Tarafning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

10.4. Agar Taraflardan biri mazkur shartnomada keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilgani yoki buzilishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni 10 (o'n) bank ishi kuni davomida yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Yozma xabarnomada Taraflar tomonidan ushbu shartlar va qoidalarining buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, shuningdek amaldagi qonunchilik talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

10.5. Bir Taraf korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganda va yoki boshqa Taraf huquqbuzarlik sodir bo'lmagan yoki sodir bo'lmashligi haqida o'rnatilgan muddatda Yozma xabarnoma olmagan taqdirda, boshqa Taraf shartnomani bekor qilish haqida Yozma xabarnoma jo'natgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Mazkur shartlar asosida shartnomani bekor qilish tashabbusi bilan chiqqan Taraf, shartnomani bekor qilish natijasida vujudga kelgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

10.6. Shartnomaning taraflari korrupsiyani oldini olish choralari ko'rish tartib-taomilarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda taraflar korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar.

10.7. Taraflar ushbu Shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan Taraf uchun ham oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

XI. SHARTNOMANING KUCHGA KIRISH TARTIBI VA BOSHQA SHARTLAR

11.1. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchilik va nizolar mazkur shartnomaga muvofiq hamda amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

11.2. Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar o'z natijasini bermasa, nizo sudda ko'rib chiqiladi.

11.3. Mazkur shartnoma kredit oluvchi tomonidan kreditlash uchun ta'minot turlaridan biri taqdim qilingandan so'ng kuchga kiradi.

11.4. Bank kredit shartnomasi kuchga kirgach va ssuda hisobvarag'i ochilgach bir kun muddat ichida mablag'larni ajratadi shu kundan boshlab berilgan kredit uchun foizlar hisoblanadi.

11.5. Ushbu shartnomani imzolash bilan Kredit oluvchi o'ziga tegishli zaruriy shaxsiy ma'lumotlarni Bank tomonidan olinishi, qayta ishlanishi va/yoki talab qilinishi huquqini beradi.

11.6. Tomonlar qonunchilikda mazkur shartnomaga doir munosabatlarni tartibga soluvchi o'zgartirishlar ro'y berganda shartnomani unga muvofiqlashtiradi.

11.7. Kredit yoki qarzning to'liq qiymati (KTQ) ni hisoblab chiqishda qarz oluvchining quyidagi to'lovlari hisobga olinadi:

a) asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlar;

b) bank foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar — agar bunday to'lovlar shartnoma shartlariga muvofiq kredit oluvchining majburiyatlariga kirsa va/yoki kredit yoki qarz berilishi bunday to'lovlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa;

v) uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar, agar bunday to'lovlar shartnoma shartlariga muvofiq kredit oluvchining majburiyatlariga kirsa, shu jumladan quyidagi to'lovlar:

- sug'urta tashkiloti foydasiga amalga oshirilgan to'lovlar, agar sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelgan taqdirda naf oluvchi bo'lib bank hisoblansa;

- kredit oluvchining majburiyatlari ta'minotiga qabul qilingan va garovga qo'yuvchining ixtiyorida qoladigan garov predmetini garov shartnomasi bo'yicha sug'urta qilishda kredit oluvchi tomonidan sug'urta tashkilotining foydasiga amalga oshirilgan to'lovlar;

- kredit oluvchi tomonidan kafolat (kafillik) olish uchun kafolat beruvchiga (kafilga), shuningdek garovga topshirilayotgan mulkni baholash uchun baholovchi tashkilotga to'langan to'lovlar;

- mijozlarni jalb qilish, ular tomonidan kredit yoki qarz olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish, ushbu hujjatlarni bankka topshirish, kredit yoki qarzlarni qoplash hisobiga bank mijozlaridan to'lovlar va pul o'tkazmalarini qabul qilish bo'yicha bankka xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar (vositachilar) hisobiga amalga oshirilgan to'lovlar.

Bank tomonidan KTQ ko'rsatkichining hisob-kitobi shartnoma muddati tugagunga qadar mazkur badda nazarda tutilgan barcha to'lovlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

11.8. Kredit bo'yicha talabni boshqa shaxs foydasiga voz kechish faqat bank va qarzdorning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

11.9. Kredit bo'yicha talabni uchinchi shaxsga o'tkazish huquqi alohida bitim bilan rasmiylashtiriladi.

11.10. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa shartlar amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi.

11.11. Shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzildi va ular bir xil yuridik kuchga ega.

11.12. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar taraflarning kelishuviga binoan amalga oshiriladi.

XII. TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI, TO'LOV REKVIZITLARI, IMZOLARI

BANK:	KREDIT OLUVCHI:
"Mikrokreditbank" ATB filiali Manzil: _____ tel: _____ h/v: _____ MFO: _____ STIR: _____ OKONX: _____	Manzil: _____ Tel: _____ Pasport ma'lumotlari: _____ № _____ tomonidan _____.____._____ yilda berilgan STIR: _____

TOMONLARNING IMZOLARI	
_____ filiali boshlig'i: Bosh buxgalter: Huquqshunos: M.O'.	Kredit oluvchi: _____ <i>imzo</i>

KREDIT OLUVCHI: Men, _____ *o'z qo'li bilan* _____
 ushbu shartnomani o'qidim, shartnomadagi bo'lim va bandlar hamda undagi so'zlarning mazmuni, mohiyati aniq va tushunarli bo'lganligi uchun mazkur shartnomani imzolayman va uni so'zsiz bajaraman.

(imzo)

Plastik karta raqami: _____ **amal qilish muddati** ____ / ____